


“LETA” AA saytida Afg’oniston muammosi bo’yicha Markaziy Osiyo, Hindiston, Eron va Afg’oniston yetakchi mutaxassislari ishtirokida o’tgan xalqaro videokonferensiya haqida maqola chop etildi



Yaqinda bo’lib o’tgan «Afg’oniston kelajagi: Markaziy Osiyo va Eron manzarasi» xalqaro videokonferensiysi mintaqamizdan tashqarida ham katta qiziqishga sabab bo’lmoqda, deb xabar beradi “Dunyo” muxbiri.

Jumladan, ushbu konferensiya tafsilotlari bo'yicha Latviyaning "LETA" milliy axborot agentligi veb-saytida ingliz va rus tillarida maqola e'lon qildi. Materialda O'zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlari Afg'onistondagi vaziyatni tinch yo'l bilan hal etish borasidagi sa'y-harakatlar batafsil tahlil qilingan.

Hindistonning yetakchi tahlil markazi — «Observer Research Foundation» tomonidan tashkil etilgan onlayn forumda Hindiston, Eron, Qozog'iston, Tojikiston, Afg'oniston va O'zbekistonning tahliliy va tadqiqot markazlari rahbarlar, ekspertlar ishtirok etdi, deb yozadi "LETA".

“Onlayn muhokamalarda Afg'onistondagi hozirgi vaziyat, davlat qurish va ushbu mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy tiklanish istiqbollari, Markaziy va Janubiy Osiyoning mintaqalararo o'zaro bog'liqligini mustahkamlash masalalari bo'yicha konstruktiv fikr almashildi.

Konferensiyada so'zga chiqqan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqaviy tadqiqotlar instituti direktorining birinchi o'rinosari Akramjon Ne'matov O'zbekiston an'anaviy ravishda afg'on xalqi saylagan hukumatni qo'llab-quvvatlab, Afg'onistonga nisbatan do'stona siyosat yuritayotganini ta'kidladi. Ushbu siyosat Shavkat Mirziyoyevning mamlakatda Prezident etib saylanishi bilan yaxlit, har tomonlama va dinamik xarakter kasb etdi.

Afg'onistonda tinch muzokaralar boshlanishi uchun tahlilchilar xalqaro hamjamiyat sa'y-harakatlarini birlashtirish zarurligini yana bir bor ta'kidladi. Shu bilan birga, ekspertlar Afg'oniston siyosiy tizimining konfiguratsiyasini, kelajagini va shaklini afg'on xalqi o'zi hal qilishi kerak degan fikrga qo'shildi. Asosiysi, u qamrab olingen siyosiy jarayonni ta'minlashi, mamlakatda milliy uyg'unlikka erishish kafolati bo'lishi kerak.

Afg'oniston mojarosini hal qilishda Markaziy Osiyo mamlakatlari sa'y-harakatlarining muhimligini e'tirof etgan holda, ekspertlar o'tgan yilning noyabr oyida Toshkentda bo'lib o'tgan O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg'iziston Prezidentlarining maslahat uchrashuvida Afg'onistonning mintaqaviy savdo-iqtisodiy aloqalari mamlakatda barqaror va uzoq muddatli tinchlikka erishishning muhim sharti ekani haqida qo'shma bayonot qabul qilinganini yuqori baholadilar.

Shu munosabat bilan Afg'onistonning demokratik rivojlanish yo'liga sodiqligi nafaqat mamlakatda barqaror tinchlik va uzoq muddatli barqarorlikka erishish, balki Afg'onistonning Markaziy Osiyo mintaqasiga muvaffaqiyatli qo'shilishiga va mintaqaviy savdo-iqtisodiy hamkorlikning salohiyatini to'liq anglashiga yordam beradi", deyiladi Latviya yangiliklar agentligi materialida.

"LETA" Milliy axborot agentligi "Latopress" nomi ostida 1919 yilda tashkil etilgan. Agentlik 1991 yildan boshlab mustaqil tashkilot sifatida faoliyat yuritadi. Agentlik Latviya va dunyodagi eng muhim voqealarni yorituvchi, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy axborotlarning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi.

Manba